

THE ROLE OF NATIONAL VALUES AND MODERN TRENDS IN THE
FORMATION OF A CREATIVE ENVIRONMENT IN HIGHER ART
EDUCATION INSTITUTIONS

Saidova Sayyora Djurayevna

Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalar
univrsiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti dekani, dotsent

Annotation: This article provides a scientific analysis of the process of forming a creative environment in art education institutions through the harmonious integration of national values and modern educational trends. The article highlights the role and importance of traditional and innovative approaches in developing students' aesthetic taste, national identity, and creative thinking. It also scientifically substantiates the significance of integrating national heritage, folk oral art, cultural traditions, and digital technologies into the educational process. Furthermore, the article presents conclusions about the role of innovative methods in fostering the spiritual and aesthetic development of youth, as well as explores ways to modernize art education based on digital technologies, interactive methods, and international experience.

Keywords: art education, culture, creative environment, national values, modern trends, innovation, aesthetic education.

SAN'AT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA IJODIY MUHITNING
SHAKLLANISHIDA MILLIY QADRIYATLAR VA ZAMONAVIY
TENDENSIYALARNING O'RNI

Annotatsiya: Ushbu maqolada San'at oliy ta'lim muassasalarida ijodiy muhitni shakllantirish jarayonida milliy qadriyatlar bilan zamonaviy ta'lim tendensiyalarining uyg'unlashuvi ilmiy tahlil qilinadi. Maqolada talabalarning estetik didi, milliy o'zlikni anglash va ijodiy tafakkurini rivojlantirishda an'anaviy va innovatsion yondashuvlarning o'rni va ahamiyati va ta'lim jarayonida milliy meros, xalq og'zaki ijodi, madaniy an'analar va raqamli texnologiyalar uyg'unligining ahamiyati ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, maqolada yoshlarning ma'naviy kamoloti, estetik didi va ijodiy salohiyatini rivojlantirishda innovatsion metodlarning o'rni haqida xulosalar va raqamli texnologiyalar, interfaol metodlar va xalqaro tajribalar asosida san'at ta'limini modernizatsiya qilish yo'llari ko'rib chiqiladi.

Kalit soʻzlar: Sanʼat taʼlimi, madaniyat, ijodiy muhit, milliy qadriyatlar, zamonaviy tendensiyalar, innovatsiya, estetik tarbiya.

РОЛЬ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ И СОВРЕМЕННЫХ ТЕНДЕНЦИЙ В ФОРМИРОВАНИИ ТВОРЧЕСКОЙ СРЕДЫ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ ИСКУССТВА

Аннотация: В данной статье научно анализируется процесс формирования творческой среды в учреждениях художественного образования в контексте гармоничного сочетания национальных ценностей и современных образовательных тенденций. В статье раскрывается роль и значение традиционных и инновационных подходов в развитии эстетического вкуса, национального самосознания и творческого мышления студентов. Также научно обоснована важность интеграции национального наследия, народного устного творчества, культурных традиций и цифровых технологий в образовательный процесс. Кроме того, в статье рассматриваются выводы о роли инновационных методов в духовном и эстетическом воспитании молодежи, а также пути модернизации художественного образования на основе цифровых технологий, интерактивных методов и международного опыта.

Ключевые слова: художественное образование, культура, творческая среда, национальные ценности, современные тенденции, инновации, эстетическое воспитание.

KIRISH. Har bir millatning taraqqiyoti uning oʻz milliy oʻzligini anglash darajasi bilan chambarchas bogʻliqdir. Ijodiy muhitning shakllanishida milliy qadriyatlar va zamonaviy tendensiyalar uygʻunligi oʻtmish merosi va kelajak gʻoyalari orasidagi muvozanatni taʼminlaydi, bu esa ijodkorlarga milliy oʻziga xoslikni saqlagan holda dunyo miqyosidagi ijodiy yutuqlarga erishish imkonini beradi. Ushbu uygʻunlik milliy madaniyatning global innovatsiyalar bilan integratsiyalashuvining oʻrni orqali madaniy kontentning boyishiga va sanʼat, adabiyot hamda fanning yangi yoʻnalishlarining paydo boʻlishiga yordam beradi. Bugungi globallashuv jarayonida yosh avlodni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash bilan birga, ularni zamonaviy dunyoqarash, yangicha tafakkur va ijodiy yondashuv ruhida shakllantirish taʼlim tizimining muhim vazifasiga aylanmoqda va raqamli transformatsiya davrida sanʼat taʼlimi tizimida ijodiy muhitni shakllantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Sanʼat taʼlimi nafaqat kasbiy mahoratni rivojlantiradi, balki yoshlarning milliy

qadriyatlarga hurmatini oshiradi va ularni zamonaviy dunyoqarashga tayyorlaydi. Shu bois, ta'lim jarayonida **qadriyatlar** bilan **zamonaviy tendensiyalarning** uyg'unligi ta'lim samaradorligini oshirishning asosiy omillaridan biridir [1]. Milliy qadriyatlar ijodkorlar uchun ma'naviy tayanch vazifasini o'taydi, ularga o'z ijodlari uchun asosiy mavzu, g'oyalar va ilhom manbasini taqdim etadi. Qadriyatlar ijodiy mahsulotning o'ziga xosligini ta'minlaydi, uni global madaniyatdan farqlaydi va milliy madaniyatning davomiyligiga hissa qo'shadi va milliy qadriyatlar ko'pincha ijtimoiy, axloqiy va ma'naviy muammolarni ko'taradi, bu esa ijodkorlarning jamiyatga ta'sirini oshiradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning ta'kidlashicha, "Milliy g'oya, milliy qadriyatlar — bu bizning ruhiy tayanchimiz, ularni asrash va yangilash – har bir soha vakilining burchidir" [2]. Shu bois, an'anaviy va innovatsion ta'lim metodlarini uyg'unlashtirish yoshlarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishda asosiy yo'nalish hisoblanadi. Ijodiy tafakkur — bu yangicha fikrlash, yangi g'oya va shakllarni yaratish qobiliyatidir. Bu jarayon o'z-o'zini anglash, mustaqil tahlil va estetik idrok bilan bog'liq.

TAHLIL VA MUHOKAMA. San'at, adabiyot va madaniyat yo'nalishlarida o'quvchilarni ijodiy fikrlashga yo'naltirish, o'qituvchining shaxsiy ijodiy namunasi va muhitning erkinligi bilan chambarchas aloqadordir. Zamonaviy ta'limda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun:

- "Design thinking" va STEAM yondashuvlari,
- interfaol mashg'ulotlar (debat, loyiha, tahlil, refleksiya),

media va raqamli san'at vositalaridan foydalanish muhim hisoblanadi. Ijodiy muhit — bu talabalarning estetik, badiiy va intellektual salohiyatini yuzaga chiqaruvchi psixologik-pedagogik sharoitlar majmuasidir [3]. Bu muhitda o'qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki ijodkorlikni rag'batlantiruvchi yetakchi sifatida namoyon bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qarorlarida ijodiy yondashuvni rivojlantirish, milliy merosga asoslangan innovatsion ta'lim modelini yaratish ustuvor vazifa sifatida belgilangan [4]. An'anaviy yondashuvlar – bu xalq pedagogikasi, ma'naviy meros, urf-odatlar va tarixiy tajribaga asoslangan ta'lim usullaridir. Ular quyidagi afzalliklarga ega:

- shaxsda milliy g'urur va madaniy identifikatsiyani mustahkamlaydi;
- ta'lim jarayonini ma'naviy jihatdan boyitadi;

- tarixiy xotira va davomiylikni ta'minlaydi.

Masalan, xalq ertaklari, maqollar, musiqiy meros, xalq amaliy san'ati — yosh avlodda ijodiy tasavvurni uyg'otuvchi kuchli vositalardir. Milliy qadriyatlar xalqning tarixiy xotirasi, madaniy an'analari va san'at merosida mujassamdir. San'at ta'limida qadriyatlarni o'rganish yosh avlodda milliy o'zlikni anglash, badiiy did, va axloqiy mas'uliyatni shakllantiradi. Masalan, o'zbek xalq musiqasi, amaliy san'ati, miniatyura, naqsh, va teatr san'atini o'quv jarayoniga singdirish talabalarda milliy g'ururni oshiradi va zamonaviy ijodiy ifodani boyitadi [5]. Zamonaviy ta'lim tizimida interfaol metodlar, media texnologiyalar, va raqamli san'at vositalaridan foydalanish ijodiy jarayonni samarali qiladi. Masalan, "flipped classroom" (teskari sinf) modeli, STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) yondashuvi, hamda virtual galereyalar orqali ta'lim jarayonini boyitish madaniyat ta'limida yangi imkoniyatlar yaratmoqda [6]. Bu orqali talabalar nafaqat an'anaviy badiiy ifodalarni o'rganadilar, balki global san'at tendensiyalarini tahlil qilishni ham o'zlashtiradilar. Ta'limda qadriyatlar va zamonaviy metodlarning uyg'unligi o'qituvchi va talaba o'rtasidagi subyektiv hamkorlikni mustahkamlaydi. Bu uyg'unlik — ijodkor shaxsning ma'naviy yetukligi, estetik tafakkuri, va innovatsion fikrlashini shakllantiradi. Shuning uchun san'at ta'lim muassasalarida milliy madaniyatni asrab-avaylash bilan bir qatorda, uni zamonaviy g'oyalar bilan boyitish muhimdir [7].

Innovatsion yondashuvlar zamonaviy texnologiyalar, interfaol platformalar va raqamli madaniyat asosida shakllanadi.

Bu yondashuvlar quyidagi natijalarni beradi:

- o'quvchilarda mustaqil fikrlash va ijodiy qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi;
- virtual muzeylar, onlayn galereyalar, multimedia darslar orqali san'at ta'limini yanada jozibador qiladi;
- xalqaro hamkorlik va tajriba almashish imkoniyatini yaratadi.

Shunday qilib, hozirgi kunda innovatsion metodlar milliy madaniyatni global kontekstda ilgari surish vositasiga aylanmoqda. An'anaviy va innovatsion yondashuvlarning uyg'unligi ta'lim tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Bu uyg'unlik orqali:

- milliy qadriyatlar zamonaviy g'oyalar bilan boyitiladi;
- yoshlar global madaniyat jarayonlarida o'z milliy o'zligini yo'qotmasdan faol ishtirok etadi;
- ijodiy tafakkur ma'naviylik va yangilikka intilish bilan uyg'un holda shakllanadi [8].

Zamonaviy tendensiyalar, shu jumladan yangi texnologiyalar, ijodiy jarayonni boyitadi, yangi ijodiy vositalar, shakllar va ifoda usullarini yaratadi va global madaniyat bilan aloqani kuchaytiradi, bu esa ijodkorlarga xalqaro tajribadan o'rganish, hamkorlik qilish va o'z ijodlarini xalqaro miqyosda taqdim etish imkoniyatini beradi. Zamonaviy tendensiyalar milliy ijodiy mahsulotlarni ommaviy madaniyatga kirib borishiga yordam beradi, bu esa uning kengroq auditoriya tomonidan qabul qilinishini ta'minlaydi. Milliy qadriyatlarni zamonaviy tendensiyalar bilan uyg'unlashtirish orqali ijodkorlar o'z ishlariga milliy ruhni olib kirib, bir vaqtda o'sha ishni zamonaviy uslubda yaratishlari mumkin. Ushbu uyg'unlik mahsulotlarni ham mahalliy, ham xalqaro auditoriya uchun qiziqarli qiladi, chunki u milliy o'ziga xoslikni saqlagan holda zamonaviy tendensiyalar bilan uyg'unlashadi, bunday uyg'unlik milliy madaniyatning rivojlanishiga yordam beradi va uni jahon madaniyati bilan raqobatlashishga qodir qiladi va uning o'ziga xosligini saqlab qoladi.

XULOSA. Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, San'at oliy ta'lim muassasalarida ijodiy muhitni shakllantirish jarayonida qadriyatlar va zamonaviy tendensiyalar uyg'unligini ta'minlash yoshlarning ijodiy salohiyatini rivojlantiradi, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalaydi. Shu bois, ta'lim tizimida innovatsion metodlarni joriy etish bilan bir qatorda, milliy madaniyat ildizlariga tayanish — kelajak avlodning badiiy tafakkuri va ijodiy fikrlashini shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi. Milliy o'zlikni anglash va ijodiy tafakkurni rivojlantirishda an'anaviy hamda innovatsion yondashuvlar bir-birini to'ldiruvchi ikki muhim ustunlikdir. An'anaviy qadriyatlar — ma'naviy asos, innovatsion metodlar esa — zamonaviy ifoda vositasidir. Ularning uyg'unligi natijasida bugungi kunda barkamol, ijodkor, raqobatbardosh va milliy ruhga sodiq shaxsni tarbiyalash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2008.

2. Mirziyoyev, Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
3. Hasanov B. San’at ta’limida ijodiy muhitni shakllantirish masalalari. “Madaniyat va san’at” jurnali, 2022, №3.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–4884-son qarori. 06.11.2020-y.
5. Rustamov, V., & Umarov, X. (2023). Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish va unda insonni qadrlash masalalari. *Oriental Art and Culture*, 4(1), 496-502.
6. Kalkanatov, A. (2023). THE IMPORTANCE OF MANAGING THE PARTICIPATION OF CULTURAL AND ART INSTITUTIONS AND ORGANIZATIONS IN CULTURAL ACTIVITIES. *Journal of Innovation, Creativity and Art*, 2, 7-10.
7. Alfiya, Q. (2023). Milliy Musiqa San’ati Va Yoshlar Tarbiyasi. *Journal of Creativity in Art and Design*, 1, 16-20.
8. Nazarbaevna, Q. A., & Serjanovich, K. S. (2024). The Importance of Scenario in Cultural Events. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4, 259-262.
9. Kalkanatov, A. (2023). PROFESSIONAL QUALIFICATION OF THE MANAGER IN THE CULTURAL FIELD. *JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE*, 2, 19-23.
10. Samiyev, Baxtiyor. "INNOVATIVE DEVELOPMENT OF CULTURE AND ART." *Multidisciplinary Journal of Science and Technology* 4.5 (2024): 522-525.
11. Ganieva, E. R. (2022). Genesis and Evolution: From Multi-Part TV Film to TV Series. *International Journal on Integrated Education*, 5(4), 286-290.
12. Ganieva, E. R. (2015). Prospects of development and modernization of cinema reproduction channels in Uzbekistan. in the world of science and art: questions of Philology, art criticism and cultural studies. no. 43.
13. Yuldasheva, M., & Qolqanatov, A. (2022). O ‘ZBEKISTONDA MUZEY MENEJMENTI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH XUSUSIYATLARI. *Oriental art and culture*, 3(1), 254-260.
14. Kholmuminov, M., & Qolqanatov, A. (2021). The Formation of the First Libraries in Uzbekistan and the Role of Increasing the Cultural and Educational Awareness of the Population. *image*, 4(12), 146-151.

15. Yuldasheva, M. B., & Qolqanatov, A. N. (2024). Kadrlar potentsiali ijtimoiy-madaniy sohada tashkilot faoliyati samaradorliligini oshirishshning yetakchi omili sifatida. *Inter education & global study*, (8), 58-68.
16. Rustamov, V. (2023). PRODYUSERLIK FAOLIYATDA MADANIYAT VA SAN'AT TARAQQIYOTI. *Oriental Art and Culture*, 4(1), 600-606.
17. Saparbayeva, G., & Qolqanatov, A. (2021). OMMAVIY BAYRAMLARNI TASHKIL ETISHDA SSENARIYNAVISLIKNING O 'RNI. *Oriental Art and Culture*, (8), 16-21.
18. Kolkanatov, Asilbek. "IFTIKHORI TIMSOLI TUMOR BRANCH." *JOURNAL OF HEALTHCARE AND LIFE-SCIENCE RESEARCH* 2 (2023): 67-69.
19. Nazarbai, Kolkanatov Asilbek. "NEW VOICE IN UZBEK DIRECTION." *Journal of Innovation, Creativity and Art* 2 (2023): 65-70.
20. QOLQANATOV, Asilbek. "MA'DANIYAT VAZIRLIGI VA MADANIYAT MARKAZLARI: TARIXIY TARAQQIYOT JARAYONLARIDAN." *News of UzMU journal* 1.1 (2024): 1.
21. ЮЛДАШЕВА, Манзура, and Асылбек КОЛКАНАТОВ. "ПУТИ ФОРМИРОВАНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ МОЛОДЕЖИ В СОЦИОКУЛЬТУРНОЙ СРЕДЕ." *Journal of Culture and Art* 1 (2023): 16-20.
22. Shermanov, E. U. (2025). DAXLDORLIK FAZILATI ORQALI TALABALARNING MADANIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH: STRATEGIYA VA MEKANIZMLAR. *Inter education & global study*, (3), 596-603.
23. Shermanov, E. (2024). Talabalarning madaniy daxldorlik fazilatini sun'iy intellekt vositasida o 'qitish texnologiyalari. *МАКТАБГАЧА ВА МАКТАБ ТА'LIMI JURNALI*, 1(8).
24. Saidovich, J. S., Uralovich, S. E., Kurbanov, A., & Erkinovna, A. N. (2022). The role of cinema in the system of education.
25. Shermanov, E. (2024). Madaniy intellektning ijtimoiy soha mutaxassislarini tayyorlash jarayonidagi integratsion roli. *МАКТАБГАЧА ВА МАКТАБ ТА'LIMI JURNALI*, 1(8).
26. Шерманов, Э. (2022). ИНСОН-ЎЗ ХАЛҚИ ТАҚДИРИГА ЛОҚАЙДЛИГИ ИЖТИМИЙ-ПЕДАГОГИК МУАММО СИФАТИДА. *Scientific progress*, 3(6), 64-70.